

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GAVHARSHODBEGIM VA UNING TEMURIYLAR DAVLATINING MADANIY HAYOTIDA TUGAN O'RNI

Umarova M.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot
instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada malika Gavharshodbegimning Temuriylar davlatida olib borgan bunyodkorlik ishlari manbalar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, G'iyosiddin Tarxon, Gavharshodbegim, Shohruh Mirzo, Xuroson, maqbara, masjid, madrasa, xonaqoh.

Vatanimiz tarixida Temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Chunki bu davrda Movaraunnahr siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etdi. Amir Temur bahodir jangchi, buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi bo'lishi bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, qurilish, obodonlashtirish ishlariga ham ulkan hissa qo'shgan. Amir Temur faqat Movaraunnahrda emas, balki Movaraunnahrdan ancha uzoqda bo'lgan yerlarda ham obodonchilik va qurilish ishlarini olib borgan.[2:41-b.] Amir Temurning qurilish, mamlakatni rivojlantirish, obodonlashtirish ishlariga malikalar ham o'z hissalarini qo'shganlar. Xususan, Bibixonim va Gavharshodbegimlar Samarqand, Hirotda masjid, madrasalar qurilishiga homiylik qilganlar.

Gavharshodbegim Chig'atoy ulusining obro'li beklaridan biri G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. G'iyosiddin Tarxon haqida tarixiy manbalarda ma'lumot ko'p emas. Tarixchi Turg'un Fayziyev o'zining "Temuriylar shajarasi" kitobida G'iyosiddin Tarxonning bobolaridan Kushluk ismli shaxs Chingizxon qo'shinlari safida xizmat qilganligini, janglarning birida Chingizxonni o'limdan saqlab qolganligini hikoya qiluvchi rivoyatlar borligini qayd etgan. [2:300-b.] Ushbu rivoyat Chingiziyalar davrida mashhur bo'lganligi uchun ham uning avlodlari Chingizxon davridan beri tarxon unvoniga ega bo'lgan va bu unvonning imtiyozlaridan foydalanib kelgan.

Gavharshodbegim Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning suyuqli katta xotini edi. Gavharshodbegim 1379 yilda tug'ilib, 1393 yilda Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o'g'il ikki qiz ko'rgan. To'ng'ich o'g'li-Ulug'bek



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mirzo Ko‘ragon (Muammad Tarag‘ay 1394-1449), o‘rtancha o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo (1399-1433) va kichik o‘g‘li Jo‘ki Mirzo (1401-1445)lardir.[1:8-b] T.Fayziyevning ta‘biri bilan aytganda Gavharshodbegim latofatli, oqila, zukko, yuksak did farosatli ayol bo‘lgan. Mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qilgan.

Shohruh Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etdi. Mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylandi. Shohruh Mirzo Xurosonda hukmronlik qila boshlagan ilk yillardayoq u Hirot qal‘asining Janubiy tomonidan madrasa va xonaqoh (1410-1411) bino qildiradi. Ana shundan so‘ng Shohruh Mirzo avlodiga mansub shahzodalar va malikalar ham madrasa, masjid xonaqoh, shifoxona va shunga o‘xshash imoratlar bunyod etish bilan shahar obodonchiligiga o‘z hissalarini qo‘shadilar.[1:8-b] Tarixchi muarrixlarning yozishicha Hirot shahri o‘tgan yillar davomida eniga ham, bo‘yiga ham kengaygan, oliy sha‘n imoratlar son-sanoqsiz qurilgan edi. Shaharning shimoliy qutbidagi Sari Puli Injil mavzeida qurilgan Gavharshod begim madrasasi o‘zining ulug‘vorligi,ko‘rkam tarovati bilan boshqa binolardan aloida ajralib turar edi[3:526-b] Tarixchi muarrix Abdurazzoq Samarqandiy “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asarida Gavharshod Begim madrasasiga shunday ta‘rif beradi:” Mahdi Ulyo Gavharsod Og‘o Hirotning shimolida Sari Puli Injilda qurdiryatgani oily madrasa va ulug‘vor imorat shu yili tamomlandi. U shunday bir imoratki, olamning butun ma‘mur yerlarida unga o‘xshagani topilmaydi. Bu oliy maqom imorat u yaxshi nomli Bonuning jiddu jahd ko‘rsatishi bilan tamomlanishga latofatlilikning eng yuqori darajasida zebu baqova ravnaqu safo kasb etgach, hazrat xoqoni sa‘id u yerga tadrish ahllari o‘rnashmasidan va istifodat xam tahsil kishilari qilinmasdan ilgari juma kunlari u dilkusho yer va jonfizo maqomda juma namozini adoga yetkazsinlar hamda osmonning to‘qqiz poyali minbaridan oliy xutbani Onhazratning muqaddas nomi bilan bezatsinlar, degan maslahatni ma‘qul topdi . U yerga xatib qilib Shayx Shahobiddin al-Bistomiy tayinlandi”. [4:24-b] Gavarshod Begim madrasasining qurilishi va xatiblarning tayinlanishi Shohruh Mirzoning nazoratida bo‘lgan va bu binoning bunyod etilishiga juda katta ahamiyat bergan. Yillar o‘tsada madrasaning dovrug‘i so‘nmagan.

Mamlakatning madaniy jihatdan yuksalishida Gavharshodbegimning hissasi beqiyosdir. Tabiatdan vatanvarvar, zukko bo‘lgan Gavarshodbegim juda ko‘p



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qurilish ishlariga rahnamolik qildi. Bu davrda Hirotda masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko‘prik va sardobalar qurib bitkazildi. Xususan, Gavharshodbegim Hirotda ikkita madrasa qurdirdi.

Madaniy va ma‘rifiy hayot birinchi galdagi vazifasi bo‘lgan Gavharshodbegim o‘zining oqilaligi, tadbirkorligi, qurilish, obodonlashtirish ishlariga qo‘shgan ulkan hissalarini, qurdirgan imoratlari bilan temuriylar tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Gavharshodbegim tomonidan bunyod etilgan madrasalar asrlar davomida avlodlar uchun ilm-ziyo maskani bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayziyev .T. Temuriylar malikalar-Toshkent: A. Qodiriy, 1994.
2. Fayziyev. T. Temuriylar shajarasi-Toshkent: Yozuvchi, 1995.
3. Ravshanov. P. Amir Temur sulolasi-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'i sa'dayn va majmai ba'xrayn-Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Xoliqov, Q., & Badriddinov, O. (2023). A STUDY OF LIPID METABOLISM IN REGULAR BLOOD DONORS. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12), 35-38.
6. Nomonovich, H. Q., & Axrorbek, M. (2024). PATHOPHYSIOLOGY AND PREVENTION OF ENDEMIC GOITER. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 3(6), 167-172.
7. Nomonovich, H. Q. (2024). BIOLOGICAL, PATHOPHYSIOLOGICAL BASES OF ANEMIA AND IMMUNE SYSTEM ACTIVITY. JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS, 3(6), 17-22.
8. Холматова, Ё. Н., Хамдамов, Х. О., Бадриддинов, О. У., & Шарапова, М. Б. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПАТОГЕНЕЗ УВЕИТОВУ ДЕТЕЙ. Экономика и социум, (11-2 (90)), 620-624.
9. Badriddinov, O., & Kholmatova, Y. (2022). MIOPIYA VIOLATION OF THE REFRACTION IS A ILLNESS. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(12), 200-204.
10. Nematillaevna, K. Y. (2022). CAUSES OF OCCURRENCE AND METHODS OF TREATMENT OF STRABISMUS. World Bulletin of Public Health, 17, 45-47.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

11. Xoliqov, Q., & Badriddinov, O. (2023). A STUDY OF LIPID METABOLISM IN REGULAR BLOOD DONORS. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12), 35-38.

12. Karim, O. M. (2024). PATHOPHYSIOLOGY OF VIRAL HEPATITIS IN CHILDREN, HEPATITIS A. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 3(6), 108-111.

13. Usmonjon o'g'li, B. O. LIPOPROTEIN METABOLISM OF REGULAR BLOOD DONORS.

14. Хамракулов, Т. З., Бадридинов, О. У., & Шерназаров, А. Т. ИЗМЕНЕНИЯ В ПАТОГЕНЕЗЕ МИКРОЦИРКУЛЯЦИИ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ ГИПОКСИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ.

15. Хамракулов, Т. З., & Бадридинов, О. У. ИЗМЕНЕНИЯ ГЕМОРЕОЛОГИИ В ПАТОГЕНЕЗЕ МИКРОЦИРКУЛЯТОР-НЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ ТЕЧЕНИЕ ГИПОКСИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ.

16. Хамракулов, Т. З., Бадридинов, О. У., & Шерназаров, А. Т. ИЗМЕНЕНИЯ В ПАТОГЕНЕЗЕ МИКРОЦИРКУЛЯЦИИ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ ГИПОКСИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ.

17. Karimov, A. R., Nishonov, D. A., Tursunov, K. Z., Khomidova, T. E., Ruzibaeva, Y. R., Rustamov, S. G., ... & Yusupov, B. L. (2023). Clinical and Morphological Characteristics and Treatment of Gaucher Disease. JOURNAL OF EDUCATION AND SCIENTIFIC MEDICINE, 1(4), 134-143.

18. Сиддиков, К. М., Хакимов, З. К., Нурматов, Х. В., Райимбердиев, С. А., & Юсупов, Б. Л. (2021). КОМОРБИДНОСТЬ И ПРОГНОЗ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЕГКИХ. Экономика и социум, (2-2 (81)), 188-192.

19. Siddiqov, KM, Hakimov, ZK, Yusupov, BL, & Raimberdiev, SA (2021). BUZILGAN HOLDALARDA QO'RQITUVCHI GIPNOTIZM. Ekonomi va sotsium , (1-1 (80)), 196-199.

20. Siddikov, K. M., Khakimov, Z. K., Yusupov, B. L., & Raimberdiev, S. A. (2021). FRIGHTENINGHYPNOTISM IN CASES OF VIOLATIONS. Экономика и социум, (1-1 (80)), 196-199.

